

HOMILADORLIK VA HOMILADOR AYOL – MAQSADLI GURUXI

Dadajonova Sayyoraxon Ma'rufjon qizi

Abu Ali Inb Sino nomidagi Qo'qon jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi.

Qo'qon, O'zbekiston.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada homiladorlik, homilador ayol maqsadli guruxi, homiladorlikning kechishi, ayollar maslahatxonalari, homiladorlik toksikozlari, homiladorlik patologiyalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *homiladorlik, maqsadli gurux, ayollar maslahatxonasi, toksikoz, rezus-faktor.*

Аннотация. *В статье собрана информация о беременности, целевой группе беременных, течении беременности, женских консультациях, токсикозах беременных и патологиях беременности.*

Ключевые слова: *беременность, целевая группа, женская клиника, токсикоз, резус-фактор.*

Abstract. *This article contains information about pregnancy, the target group of pregnant women, the course of pregnancy, women's counseling centers, pregnancy toxicosis, and pregnancy pathologies.*

Key words: *pregnancy, target group, women's clinic, toxicosis, rhesus factor.*

Homiladorlik - bachadonda embrion rivojlanishi davridagi ayolning holati. Urug'langan tuxum hujayra bachadonda rivojlanadi, u yerda embrion, barcha zarur sharoitga, oziq moddalarga, qulay va nisbatan doimiy muhitga ega bo'ladi.

Homiladorlikning davomiyligi - o'n qamariya oyidir (28 kun x 10). Ona qornidagi rivojlanish davrida bitta hujayradan ko'p hujayrali murakkab organizm rivojlanadi, u ona tanasidan tashqarida rivojlanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu ayollar uchun mas'uliyatli va og'ir davrda, uning organizmidagi hamma kuch bachadonda rivojlanayotgan homilaga beriladn.

Bo'lg'usi onada almashinuv jarayoni, oqsil va boshqa moddalar sintezi, ulardan bolaning hujayralari, to'qimalari va organlari rivojlanadi, neytralizasiya va embrion hayot faoliyati mahsulotlarini chiqarish kuchayadi. Homiladorlikning dastlabki uch oyida embrion noqulay faktorlar ta'siriga, ayniqsa, sezgir bo'ladi, ular ichida eng xavfli onaning virusli infeksiyasi - og'ir gripp, qizilcha, ayollardagi toksikozlar va boshqalar kuzatiladi.

Homilador ayol – maqsadli guruxi deb, moderator-ma'ruzachidan foyda oluvchi guruhni aytamiz. Homilador ayollar-ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan maqsadli gurux sifatida ham qaralishi kerak. Homilador bo'lish bu fiziologik jarayondir. Albatta, ko'p hollarda homiladorlik maroqli va intiqlik bilan kutilgan ijobiy jarayondir. Homiladorlik davrida oilada tinch-totuv, farovon muhit yaratilgan bo'lishi kerak. Urug'lanishning dastlabki bosqichlaridanoq intensiv jarayon boshlanishini yodda tutish kerak. Homila shakllanishi

davrida stresli vaziyatlar, oziqlanishning buzilishi, noto'g'ri jismoniy xarakatlar, homila rivojlanishiga salbiy ta'sir qilib, umuman, muhim darajada perinatal ontogenezni yomonlashtirib qo'yishi mumkin. Bunday ta'sirlar oqibatida postnatal ontogenez rivojlanish jarayoni ham o'zgarib ketishi mumkin. Ya'ni tug'ilganidan keyin go'dak turli patologik xolatlarga duchor bo'lishi mumkin. Bolani dunyoga keltirish ham ma'lum qiyinchiliklar bilan kechadi. Shuning uchun, homiladorlik davrida (perinatal davr) bo'lg'usi onaga albatta e'tibor qaratilishi kerak.

Bolani me'yoriy holda rivojlanishi va uning sog'liq holati ko'p jihatdan onaga va homiladorlikning kechishiga bog'liq bo'ladi. Ayol kishi bo'yida bo'lib, ona bo'lishiga tayyorlanar ekan, bo'lajak farzandi haqida g'amxo'rlik qilishi kerak. Ayol homiladorligining dastlabki alomatlari paydo bo'lgandayoq ayollar maslahatxonasiga borishi shart. Ayollar maslahatxonasi ona bilan bola sog'lig'ini muhofaza qiladigan muassasalarning ilk bosqichi hisoblanadi. Bu yerda homilador ayolda homiladorlikning eson-omon kechishi va yangi tug'ilgan chaqaloqning rivojlanishi uchun barcha zarur chora-tadbirlar ko'riladi. Har bir homilador ayol shuni unutmasligi kerakki, bo'lajak farzandining sihat-salomat bo'lishi uning o'ziga bog'liq. Homiladorlik maslahatxonasiga qanchalik erta borsa, homiladorlik shunchalik aniq qo'yiladi, homiladorlikning kechishida biror o'zgarish ro'y bersa, darhol zarur chora-tadbirlar ko'riladi. Ba'zan ayol kishi boshqorong'ilik paytida ko'ngli aynab qusadi, ovqatning mazasi boshqacha tuyuladi va hakoza, bu alomatlar faqat homiladorlik uchun emas, balki boshqa qator kasalliklar uchun ham xosdir.

Ayollar maslahatxonasida bo'lajak ona klinik va laboratoriya tekshiruvidan o'tkaziladi. Uni ginekolog, terapevt, endokrinolog, okulist, stomatolog ko'radi va u dispanser nazoratiga olinadi.

Ayolda o'zining va homilaning sog'lig'iga xavf soladigan birorta og'ir kasallik (yurak porogi, o'pka, buyraklar, jigan va boshqa organlarining jiddiy zaralanishi) topilgudek bo'lsa, shifokorlar homiladorlikni saqlab qolish yoki bolani oldirish masalasini hal etadilar.

Kunlardan birida ayollar maslahatxonasiga bir homilador ayol keladi. Uning bo'yida bo'lganiga 10 hafta bo'lgan. Ayol tekshiruvdan o'tganida yurak parogi borligi aniqlanadi. Shifokorlar bu ayolni sinchiklab tekshirishdi va terapevtning doimiy nazoratida tursa, hamda qunt bilan davolansa, eson-omon farzandini dunyoga keltirishini aytishadi. Ayol uch marta kasalxonada davolandi. U oy kuni yetib, ko'zi yoridi - undan sog'lom bola tug'ildi. Shuning uchun ham har bir sog'lom ayol homiladorlikning birinchi yarmida oyda bir marotaba ayollar maslahatxonasiga borib turishi zarur.

Homilador ayolda turli toksikozlar bo'lsa, u davolanishi kerak, chunki toksikoz homilaning rivojlanishiga ta'sir qiladi, uning kislorodga yolchimasligiga olib boradi, shuningdek tug'ruq davrida har xil og'ir holatlar sodir bo'ladi, bola kasal yoki o'lik tug'ilishi mumkin.

Homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida uchraydigan toksikozlar tafovut qilinadi. Homiladorlikning birinchi yarmidagi toksikozda ayolning ishtahasi yo'qoladi, ko'ngli aynaydi, qusadi, og'zi taxir bo'ladi. Bu xodisalar sust bo'lsa, hech qanday xavf bo'lmaydi,

davolashning ham hojati yo'q, 2-3 oydan keyin o'z-o'zidan o'tib ketadi. Ular zo'rayganda esa davo buyuriladi. Homiladorlikning ikkinchi yarmida oyoq shishishi, yuz ko'pchishi, bosh og'rishi va ko'ngil aynashi mumkin. Tekshirib ko'rilganda qon bosimining oshgani aniqlanadi, siydikda o'zgarishlar topiladi. Bunday holatda homilador ayol kasalxonada davolanishi kerak bo'ladi.

Onaning homiladorlik davrida har qanday yuqumli kasallikka chalinishi homilaga ta'sir qilmay qolmaydi. Homilador ayolning virusli kasalliklar bilan kasallanishi ayniqsa xavfli. Sababi shundaki, zarodish xujayralari viruslarning zararlovchi ta'siriga organlar murtaqlari endi shakllanib kelayotgan davrda juda ta'sirchan bo'ladi. Kuz-qish paytida yuqori nafas yo'llari katari va gripp ko'paygan davrda homilador ayol o'zini ehtiyot qilishi kerak. U havovannalari olib turishi, badanini nam sochiq bilan sekin asta ishqalab artib, organizmni chiniqtirib borishi o'zi uchun yaxshi bo'ladi. Homilador ayol yuqumli kasallik bilan og'rikan bemorlarga yaqin yurmasligi, buning iloji bo'lmasa, doka niqobdan foydalanishi kerak.

Yuqumli kasalliklar ichida toksoplazmoz homilaga ona qornida katta zarar yetkazishi bilan ayniqsa xavflidir. Bu kasallik oqibatida bola oy-kuni yetmay dunyoga kelishi yoki o'lik tug'ilishi, ko'r, majruh, esi past bo'lib tug'ilishi mumkin. Bu infeksiya homilador ayol ko'zi yoriguniga qadar bo'ladi. Agar kasallik vaqtida aniqlanib, davolansa, aksari sog'lom bolani dunyoga keltiradi. Homilador ayol albatta rezus-faktorga tekshiriladi.

Rezus-faktor odamning qizil qon tanachalarida (eritrositlarida) bo'ladigan oqsil tabiatidagi moddalar bo'lib, odamlarning 85 foizida bo'ladi, qolgan 15 foizida esa ushbu oqsil tabiatidagi moddalar bo'lmaydi. Agar ona rezus-manfiy bo'lib, homila esa rezus-musbat bo'lsa, u holda ona bilan homila o'rtasida rezus-raqobat yuzaga keladi, natijada chaqaloqlar gemolitik kasallik bilan tug'iladi. Kasallikning og'ir turida chaqaloqning markaziy nerv sistemasi qattiq zararlanadi va oqibatda bola jismoniy hamda psixik jihatdan nogiron bo'ladi. Bu kasallikni oldini olish uchun ayol davolanishi kerak. Shifokor bunday ayollarga yaqin ikki yil ichida homilador bo'lmaslikka harakat qilishini, ginekolog nazoratida maxsus profilaktik davo olishini maslahat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдиева Сетора Ахмаджон кизи //ФАКТОРЫ РИСКА РВОТЫ БЕРЕМЕННЫХ// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 25-SON. 20.12.2023. 156-163.
2. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproktiv salomatlik. O'quv qo'llanma.
3. Parpieva, O. R., & Djalalidinova, O. O. (2022). Reproductive Health Issues. Texas Journal of Medical Science, 14, 58-61.
4. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproductive health.
5. Parpiyeva, O. R., & Dzhalloldinova, O. O. (2022). The role of Valeology in raising a healthy generation. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 13, 1-3.

6. Tojalieva, M. M., & Ravshanovna, R. Y. (2023). Pregnancy during a pandemic of coronavirus infection COVID-19 risks and effects on the unborn child. *Texas Journal of Medical Science*, 18, 1-5.
7. Ruzibaeva, E. R., & Mamatkulova, M. T. (2023). VACCINATION AGAINST CORONAVIRUS INFECTION IN FERGANA REGION FOR THE PERIOD 2021-2022. *World Bulletin of Public Health*, 19, 240-242.
8. Рузибаева, Е. Р., & Маматкулова, М. Т. (2023). СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ РАКА ШЕЙКИ МАТКИ ЗА ПЕРИОД 2017-2021 г. г. ПО ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 632-637.
9. РУЗИБОЕВА, Е. Р., & КАРИМОВ, А. Р. ФАКТОРЫ, ПРЕДРАСПОЛАГАЮЩИЕ К РАЗВИТИЮ РАКА ШЕЙКИ МАТКИ СРЕДИ ЖЕНЩИН ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ ЗА ПЕРИОД 2017-2021 Г. Г. *ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука"*, 31-32.
10. Рузибоева, Е. Р., & Каримов, А. Р. (2021). Эпидемиологические особенности рака шейки матки.
11. Parpieva, O. R., Muydinova, E., Safarova, G., & Boltaboeva, N. (2020). Social and psychological aspects of a healthy life style. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1364-1368.
12. Parpiyeva, O. (2023). "KO'KRAK BEZI SARATONI BILAN KASALLANGAN AYOLLAR OVQATLANISHINI KORREKTSIYALASHNI ILMIY ASOSLASH" MAVZUSI BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(12) 168-177.
13. Rakhmanovna, P. O. (2022). Nutrition and diet in breast cancer. *Texas Journal of Medical Science*, 7, 27-30.
14. Rakhmanovna, P. O., & Ugli, O. A. D. (2021). Modern Scientific Research In Oncological Diseases. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 3(03), 117-121.
15. Абдукаримова, Н. У., Муйдинова, Ё. Г., Парпиева, О. У., & Мухамедиева, И. Б. (2015). ОЦЕНКА РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН ГОРОДСКОЙ И СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. In *Актуальные проблемы медицины в России и за рубежом* (pp. 102-104).
16. Parpieva, O. R., Muydinova, E., & Safarova, G. (2021). Breast cancer. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 482-485.
17. Parpiyeva, O. R. (2023). THE IMPORTANCE OF THE NURSE'S ACTIVITY IN CARRYING OUT PATRONAGE OF ONCOLOGICAL PATIENTS. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(8), 53-56.
18. Парпиева, О. Р. (2023). КЎКРАК БЕЗИ САРАТОНИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 446-454.

19. Makhbuba Mamatkulova // Early Prenatal Diagnosis And Prevention Of Birth Damage Development In Children (Spina Bifida - A Defect In The Development Of The Nervous System)// The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. Vol. 03. Issue 04-16. April 30, 2021. 117-126 pages.

20. Парпиева, О. Р., & Хайриллов, Х. И. (2023). ЗНАЧЕНИЕ УНИВЕРСАЛЬНОЙ ПРОГРЕССИВНОЙ МОДЕЛИ В РАБОТЕ С МАТЕРЯМИ И ДЕТЬМИ В СИСТЕМЕ ПЕРВИЧНОГО ЗВЕНА. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(10), 141-145.

21. Парпиева, О. Р., & Хайриллов, Х. И. (2023). ОНКОЛОГИК БЕМОРЛАР ПАТРОНАЖИНИ ОЛИБ БОРИШДА ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ. Scientific Impulse, 1(10), 936-940.

22. Kurbanova, I., Kamalova, D., Djalolova, D., & Akhmedov, M. (2021, November). Dynamical analysis of improvement of the needle mechanism in sewing machines. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2402, No. 1). AIP Publishing.

23. Kamalova, D. (2023). YOD TANQISLIGINING TA'SIRI. Евразийский журнал академических исследований, 3(4), 135-139.

24. Камалова, Д. А. (2019). Изменения в практике оплаты труда на производстве. Международный научно-исследовательский журнал, (10-2 (88)), 67-69.

25. Камалова, Д. А., & Искандарова, Ш. Т. (2013). Организация эффективных медико-санитарных мероприятий в борьбе с алкоголизмом и наркоманией. Вестник экстренной медицины, (3), 213-214.

26. Zafarbek Mirzaolimovich Komilov, & Qo'chqorov Oybek G'ulomovich. (2023). UBAYDULLON KANHOL – XVI ASR O'RTA SHARQ YIRIK OKULISTI . Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 217-220.

27. Комилова Дилдора Алишеровна. (2023). АДАПТАЦИЯ И АДАПТАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ ОРГАНИЗМА. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 221–223.

28. Kamalova, D. (2023). The value of the universal progressive model in working with mothers and children in the primary care system. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 20, 60-62.

29. Рузматова, Х. К., Камалова, Д. А., & Мухаммадова, Г. К. (2023). НАРОДНОЕ ЛЕЧЕНИЕ РАКА ЛЕГКИХ. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).

30. Abdiyeva, S. (2023). THE IMPORTANCE OF EFFECTIVE TECHNIQUES IN INCREASING VOCABULARY RANGE OF STUDENTS. Innovative Development in Educational Activities, 2(3), 129-132.

31. Abdiyeva, S. A., & Rahimova, N. B. (2021). MODERN PROBLEMS OF OBSTETRICS AND GYNECOLOGY. Экономика и социум, (12-1 (91)), 3-6.

32. Abdiyeva, S. A., & Haydarova, Z. A. (2021). EARLY TOXICOSIS IN PREGNANCY. Экономика и социум, (11-1 (90)), 3-6.

33. Abdiyeva, S. A., & Haydarova, Z. A. (2021). THE VALUE OF THE PSYCHE PREGNANT IN THE DEVELOPMENT OF EARLY TOXEMIA. *Мировая наука*, (11 (56)), 3-6.

34. Абдукаримова, Н., Парпиева, О., & Муйдинова, Ё. (2020). Пандемия шароитидаги ҳомиладор аёллар ва чақалоқларга тиббиёт тавсияларининг аҳамияти. *ACADEMIA SCIENCE”“UzACADEMIA” scientific-methodical journal*. ISSN (E)-2181-1334, 31, 370-377.